

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

### №4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>™</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
<b>PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
<b>Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
<b>Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich</b>	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
<b>Dadajonova Madina Ravshan qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
<b>Maxmudov Rahimjon</b>	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
<b>Abduraxmonova Gulmira</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
<b>Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li</b>	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
<b>Tuychieva Odina Nabiyeвна</b>	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
<b>Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
<b>Odinayev Ravzatullo Asatulloevich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
<b>Karimov Alibek Valievich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
<b>Xodjayeв Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li</b>	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
<b>Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux</b>	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
<b>Marqayev Xurshid Aliqulovich</b>	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
<b>Zaripova Sayohat Zafarovna</b>	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	188
<b>Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi</b>	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI.....	192
<b>Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura</b>	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI.....	203
<b>Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	209
<b>Yusupov Farhod Adamboyevich</b>	
TASVIRLARDAN YO'L BELGILARINI TANIB OLIISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH.....	214
<b>Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich</b>	
OLIIY TA'LIMNI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA.....	218
<b>Kurbanov Baxodir Negmatullayevich</b>	



MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI.....	222
<b>Ashurova Shaxnoza Almasovna</b>	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	226
<b>Meliboyev Askar Eshmuratovich</b>	
ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА.....	231
<b>Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.</b>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ.....	237
<b>Садиков Жaxonгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуқанмед кизи</b>	
РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ.....	243
<b>Мирджуроев Сарвар Алишер угли</b>	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA'SIRI ..	246
<b>Isoqov Zafarjon Zokirjonovich</b>	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI .....	250
<b>O'rinboev Ulug'bek Otabekovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО .....	259
<b>Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ.....	265
<b>Давронов Олимбек, Туляганов Азиз</b>	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI .....	271
<b>Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	276
<b>Abdullayeva Zulfiya Izzatovna</b>	
MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARINING BIZNES JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (BPM, LEAN VA SIX SIGMA YONDASHUVLARI MISOLIDA) ..	279
<b>Azimova Maxfuza Rashidovna</b>	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK BOSHQARISH TAMOIYILLARI .....	284
<b>Xolov Xamza Tojiddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH .....	292
<b>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich, Ibragimova Nodira Kadamovna</b>	
A THEORETICAL MODEL LINKING GENDER EQUALITY AND MANAGEMENT EFFICIENCY.....	297
<b>Ochilova Intizor Sadikovna</b>	
QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELIDAN KUTILAYOTGAN DAROMADGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODEL ORQALI BAHOLASH.....	303
<b>Sindarov Fazliddin Kaxramonovich</b>	
MAMLAKAT KIMYO SANOATIDAGI KORXONALAR FAOLIYATIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONI VA ULARNING TAHLILI.....	312
<b>Odilova Malika Abdushukur qizi</b>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQRISH SANOATIGA JORIY ETISH .....	317
<b>Abdivoyitova Sarvinoz Abduxayit qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich</b>	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOBI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI .....	321
<b>Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich</b>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	326
<b>Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TENDENSIYALARI.....	332
<b>Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich</b>	
USING ENGINEERING MODELS TO MEASURE SME RISKS IN UZBEKISTAN.....	340
<b>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</b>	
BANK FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ASOSIY MASALALARI.....	347
<b>Yusufov Javohirtshoh Ozod o'g'li, Xolmirzayev Elbek Baxtiyorovich</b>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR JARAYONIDA TALABALARNING IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	353
<b>Meyliyeva Shoxista Rustamovna</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	353
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	358
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
O'ZBEKISTONDA ELEKTR YORITISH MAHSULOTLARI BOZORINI INNOVATSION LOKALIZATSIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DINAMIKA, TAHLIL VA PROGNOZ .....	363
<b>Jurayev Murotjon Sotivoldiyevich</b>	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH VA REYTINGLASH.....	371
<b>Kosimov Bobir Abdigafarovich</b>	



UDK: 332.1:339.137

# HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH VA REYTINGLASH

**Kosimov Bobir Abdigafarovich**

University of Business and Science

2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hududlar raqobatbardoshligini baholash va reytinglashning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan. Hududiy raqobatbardoshlikning iqtisodiy mazmuni ochib berilib, uni baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar tizimi iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy hamda institutsional-innovatsion omillar kesimida tahlil qilingan. Tadqiqotda hududlarni kompleks baholashda normalizatsiya, integral indeks va reytinglash usullaridan foydalanishning amaliy jihatlari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** hududlar raqobatbardoshligi, reytinglash, integral indeks, kompleks baholash, hududiy rivojlanish.

**Annotation.** This article highlights the theoretical and methodological foundations for assessing and ranking regional competitiveness. The economic essence of regional competitiveness is revealed, and the system of key indicators used for its assessment is analyzed in terms of economic, social, infrastructural, as well as institutional and innovative factors. The study also demonstrates the practical aspects of applying normalization, integral index, and ranking methods in the comprehensive evaluation of regions.

**Keywords:** regional competitiveness, ranking, integral index, comprehensive assessment, regional development.

**Аннотация.** В данной статье освещены теоретико-методологические основы оценки и рейтингования конкурентоспособности регионов. Раскрыто экономическое содержание региональной конкурентоспособности, а система основных показателей, применяемых для её оценки, проанализирована в разрезе экономических, социальных, инфраструктурных, а также институционально-инновационных факторов. В исследовании показаны практические аспекты использования методов нормализации, интегрального индекса и рейтингования при комплексной оценке регионов.

**Ключевые слова:** конкурентоспособность регионов, рейтингование, интегральный индекс, комплексная оценка, региональное развитие.

## KIRISH

Hududlar raqobatbardoshligini baholash va reytinglash masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki hududning raqobatbardoshligi nafaqat uning iqtisodiy salohiyatini, balki investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini, ishlab chiqarish samaradorligini, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasini hamda aholi turmush darajasini aks ettiradi [1]. Shu sababli mintaqalar raqobatbardoshligini ilmiy asosda baholash, ularni o'zaro taqqoslash va reytinglash hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hududlar raqobatbardoshligi murakkab va ko'p omilli iqtisodiy kategoriya bo'lib, uni bitta yoki ikkita ko'rsatkich orqali to'liq ifodalab bo'lmaydi. Shu bois uni baholashda kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir [2]. Bunday yondashuv hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish salohiyati, investitsion jozibadorligi, eksport imkoniyatlari, innovatsion faolligi, mehnat bozori holati, ijtimoiy infratuzilmasi hamda institutsional muhitini yagona tizimda tahlil qilishni talab etadi. Mazkur ko'rsatkichlarning o'zaro uyg'unligi hududning ichki va tashqi bozorlardagi raqobat ustunligini shakllantiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston olimlari tomonidan ham hududlar raqobatbardoshligini baholashning nazariy va amaliy jihatlari keng o'rganilgan. Xususan, S. S. G'ulomov hududiy rivojlanishning asosiy omillari sifatida investitsiya faolligi, ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsion salohiyatni alohida ta'kidlaydi [3]. Shuningdek, B. Yu. Xodiyev o'z

tadqiqotlarida hududlar raqobatbardoshligini oshirishda institutsional muhit va biznes yuritish sharoitlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan.

Hududlar raqobatbardoshligini baholashning asosiy maqsadi hududlarning nisbiy ustun va rivojlantirishni talab etuvchi jihatlarini aniqlash, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasini solishtirish hamda istiqboldagi o'sish nuqtalarini belgilashdan iboratdir. Reytinglash esa ushbu baholash natijalarini tizimlashtirish imkonini beradi. Reyting natijalari asosida qaysi hududlarda investitsiya muhiti nisbatan qulayligi, qaysi hududlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligi, shuningdek, qaysi hududlar eksport salohiyati va innovatsion faolligi bilan ajralib turishi aniqlanadi [4].

Iqtisodiy ko'rsatkichlarga yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar hajmi va eksport darajasi kiradi. Ijtimoiy ko'rsatkichlar esa bandlik, daromadlar va inson kapitali bilan bog'liqdir. Infratuzilmaviy hamda innovatsion ko'rsatkichlar hududning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi [5]. Shu bilan birga, ayrim mahalliy tadqiqotchilar tomonidan hududiy rivojlanish darajasidagi farqlarni aniqlashda kompleks indekslardan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini hududiy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik nazariyasi, statistik tahlil hamda iqtisodiy-matematik baholash usullari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida hududlar raqobatbardoshligini tavsiflovchi iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va institutsional ko'rsatkichlar tizimi shakllantirildi.

Mazkur ko'rsatkichlarni baholashda statistik guruhlash, taqqoslash, umumlashtirish, normalizatsiya qilish, integral indeksni hisoblash hamda reytinglash usullaridan foydalanildi. Ushbu yondashuv hududlar rivojlanish darajasini kompleks baholash va ularni o'zaro solishtirish imkonini beradi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistik manbalar hamda hududiy rivojlanishni baholashga oid ilmiy yondashuvlar tashkil etdi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligi va asoslanganligini ta'minlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlar raqobatbardoshligini baholashda ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash imkoniyatini ta'minlash maqsadida ularni normallashtirish zarur. Amaliyotda ko'pincha xalqaro tashkilotlar, jumladan OECD va Jahon banki tomonidan tavsiya etilgan Min–Max normalizatsiya usulidan foydalaniladi [7]. Ushbu usul turli o'lchov birliklariga ega ko'rsatkichlarni yagona diapazonga keltirish orqali ularni solishtirish imkonini beradi.

Shuningdek, hududning umumiy raqobatbardoshligini aniqlashda ko'rsatkichlar vaznlari asosida integral indeks hisoblanadi. Mazkur yondashuv kompozit indeks nazariyasiga asoslanadi [8] va hududlarning rivojlanish darajasini kompleks tarzda baholash imkonini yaratadi. Amaliyotda ko'pincha quyidagi formula qo'llaniladi:

$$X_{normal} = \frac{X_i - X_{min}}{X_{max} - X_{min}}$$

bu yerda,  $X_{normal}$  – normallashtirilgan ko'rsatkich,  $X_i$  – hududning amaldagi ko'rsatkichi,  $X_{max}$  va  $X_{min}$  – tanlangan hududlar orasidagi eng yuqori va eng past qiymatlardir.

Ba'zan salbiy ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar, masalan, ishsizlik darajasi yoki kambag'allik darajasi uchun teskari formula qo'llaniladi. Bu esa barcha ko'rsatkichlarni yagona mantiq asosida — ya'ni ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, hudud raqobatbardoshligi shuncha yuqori bo'ladi — degan mezon asosida baholash imkonini beradi.

Keyingi bosqichda har bir ko'rsatkich yoki ko'rsatkichlar guruhi uchun vazn koeffitsientlari belgilanadi. Vaznlar ekspert bahosi, statistik usullar yoki analitik yondashuv asosida aniqlanishi mumkin. Masalan, iqtisodiy ko'rsatkichlar 0,35, ijtimoiy ko'rsatkichlar 0,25, infratuzilmaviy ko'rsatkichlar 0,20 hamda innovatsion va institutsional ko'rsatkichlar 0,20 ulush bilan hisobga olinishi mumkin. Ushbu vaznlar tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib mos ravishda o'zgartirilishi mumkin.

Shundan so'ng hududning integral raqobatbardoshlik indeksi hisoblab chiqiladi:

$$I_{hr} = \sum_{i=1}^n w_i \times x_i$$

bu yerda,  $I_{hr}$  – hudud raqobatbardoshligi integral indeksi,  $w_i$  – ko'rsatkichning vazni,  $x_i$  – normallashtirilgan ko'rsatkich qiymati,  $n$  – ko'rsatkichlari soni.

Mazkur integral indeks asosida hududlar reytinglanadi. Eng yuqori indeksga ega hududlar raqobatbardoshligi



yuqori bo'lgan hududlar, o'rtacha indeksga ega hududlar rivojlanayotgan hududlar, past indeksga ega hududlar esa qo'shimcha rivojlantirish choralari ehtiyoj sezuvchi hududlar sifatida tavsiflanadi. Bunday guruhlash hududiy siyosatni differensial asosda amalga oshirishga xizmat qiladi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashda amaldagi normativ-huquqiy yondashuvlardan biri sifatida "Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarorning [9] 1-ilovasidagi Nizom muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur Nizomga muvofiq, hududlarni baholash Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shuningdek, tuman va shaharlar kesimida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv hududlarning rivojlanish darajasini kompleks baholash, ularning nisbiy ustun va rivojlantirishni talab etuvchi jihatlarini aniqlash hamda yakuniy reyting o'rnini belgilash imkonini beradi.

Nizomga ko'ra, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda hududlarning holati statistik ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Bunda sakkizta ustuvor yo'nalish ajratilgan bo'lib, ularga iqtisodiy rivojlanish va samaradorlik, mehnat bozori samaradorligi, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati va sifati, infratuzilmadan foydalanish imkoniyati va uning rivojlanganlik darajasi, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va diversifikatsiyasi, ishbilarmonlik muhiti sifati va tadbirkorlikni rivojlantirish, moliyaviy mustaqillik hamda bank-moliya sohasining rivojlanishi, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqarolar murojaatlari bilan ishlash samaradorligi va ma'lumotlarning ochiqchiligi kiradi.

Ikkinchi bosqichda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati so'rov natijalari asosida baholanadi. Bunda aholining ijtimoiy farovonlik darajasi va turmush sifati, tadbirkorlar hamda investorlar uchun ishbilarmonlik muhitining holati, jamiyatning islohotlarga bo'lgan ishonchi darajasi hamda davlat boshqaruvi institutlari sifatiga oid ko'rsatkichlar aniqlanadi. Demak, ushbu metodika statistik va sotsiologik baholashni o'zaro uyg'unlashtirgan kompleks tizim hisoblanadi.

Nizomga muvofiq, birinchi bosqichdagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha maksimal ball 50 ballni, so'rov natijalari bo'yicha maksimal ball ham 50 ballni tashkil etadi. Natijada hududning yakuniy reyting bali 100 ballik tizim asosida shakllantiriladi. Bu esa hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini nisbatan xolis va ko'p omilli yondashuv asosida baholash imkonini beradi.

Statistik ko'rsatkichlarni hisoblashda ijobiy va salbiy indikatorlar farqlanadi. Ijobiy indikatorlar bo'yicha ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, hududning reyting bali shunchalik yuqori bo'ladi. Salbiy indikatorlarda esa, aksincha, ko'rsatkich qanchalik past bo'lsa, baho shunchalik yuqori bo'ladi. Shu bois, Nizomda ijobiy va salbiy ko'rsatkichlar uchun alohida formulalar nazarda tutilgan.

Ijobiy ko'rsatkichlar bo'yicha ball quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$X_{ball} = \frac{X}{X_{max}} \times X_{ball\ max}$$

bu yerda,  $X_{ball}$  – hududning muayyan ko'rsatkich bo'yicha bali,  $X$  – hududning amaldagi qiymati,  $X_{max}$  – hududlar orasidagi eng yuqori qiymat,  $X_{ball\ max}$  – esa ushbu ko'rsatkich uchun belgilangan maksimal balldir.

Salbiy ko'rsatkichlar bo'yicha ball esa quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$X_{ball} = \left(1 - \frac{X}{X_{max}}\right) \times X_{ball\ max}$$

Mazkur formula ishsizlik darajasi, kambag'allik darajasi, qarzdorlik va murojaatlar soni kabi salbiy ta'sir etuvchi indikatorlarni baholashda qo'llaniladi. Ushbu yondashuv barcha indikatorlarni yagona mezon asosida, ya'ni "ball qancha yuqori bo'lsa, hudud rivojlanishi shuncha yaxshi" degan tamoyil bo'yicha taqqoslash imkonini beradi.

Hududlar raqobatbardoshligini baholash va reytinglashda mazkur Nizom metodologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. U O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini kompleks baholash, hududlararo tafovutlarni aniqlash hamda samarali hududiy boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy vosita hisoblanadi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini Namangan viloyati misolida soddalashtirilgan namunaviy hisob-kitob sifatida quyidagicha ifodalash mumkin (1-jadval).

**1-jadval**  
**Hudud bo'yicha reyting baholashning amaliy shabloni<sup>1</sup>**

№	Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich turi	Hudud qiymati (X)	Maksimal qiymat (Xmax)	Maksimal ball	Hisoblangan ball
1	YAhM o'sish sur'ati	Ijobiy	112,0	125,0	1,25	1,12
2	Bandlik darajasi	Ijobiy	92,0	96,0	1,25	1,20
3	Ishsizlik darajasi	Salbiy	7,0	12,0	1,25	0,52
4	Eksport hajmi	Ijobiy	850	1200	1,25	0,89
5	Investitsiyalar hajmi	Ijobiy	5400	8000	1,25	0,84
	Statistik ko'rsatkichlar bo'yicha jami				50,0	x
	So'rov natijalari bo'yicha ball				50,0	x
	Yakuniy ball				100,0	x

Faraz qilaylik, "iqtisodiy rivojlanish va samaradorlik" yo'nalishida 4 ta indikator bor va yo'nalishning maksimal bali 6,25 ball. Demak, har bir indikator uchun:

$$6,25 \div 4 = 1,5625$$

Agar Namangan viloyatining eksport hajmi 700 mln dollar, eng yuqori hududniki 1000 mln dollar bo'lsa, unda:

$$X_{ball} = \frac{700}{1000} \times 1,5625 = 1,09375$$

Agar ishsizlik darajasi salbiy ko'rsatkich bo'lib, Namanganda 6 %, eng yuqori qiymat 12 % bo'lsa, unda:

$$X_{ball} = \left(1 - \frac{6}{12}\right) \times 1,5625 = 0,78125$$

Shu tarzda barcha indikatorlar bo'yicha ballar aniqlanib, jami statistik ball va yakuniy reyting shakllantiriladi.

Mazkur Nizom asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash tizimi ko'p omilli va kompleks yondashuvga asoslanadi. Unda statistik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda aholi va tadbirkorlar fikrining inobatga olinishi hududiy rivojlanishning nafaqat iqtisodiy, balki institutsional va ijtimoiy jihatlarini ham baholash imkonini beradi. Shu sababli mazkur metodika hududlar raqobatbardoshligini reytinglashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini kompleks baholash maqsadida O'zbekiston mintaqalari kesimida reyting ko'rsatkichlari asosida umumlashtirilgan tahlil amalga oshirildi. Baholashda yalpi hududiy mahsulot ulushi, investitsiya faolligi, tashqi savdo darajasi hamda hududlarning umumiy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari hisobga olindi. Hisob-kitob natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

**2-jadval**  
**O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi reytingi<sup>2</sup> (2024 yil)**

№	Hudud nomi	YAHM ulushi (%)	Investitsiya faolligi	Tashqi savdo	Yakuniy ball (100)	Reyting
1	Toshkent shahri	19,3	Juda yuqori	Juda yuqori	87,5	1
2	Toshkent viloyati	10,1	Yuqori	Yuqori	81,2	2
3	Navoiy viloyati	8,1	Juda yuqori	O'rta	78,6	3
4	Samarqand viloyati	6,9	Yuqori	O'rta	74,3	4
5	Andijon viloyati	6,5	O'rta	Yuqori	72,8	5
6	Farg'ona viloyati	6,3	O'rta	O'rta	71,4	6
7	Namangan viloyati	5,8	Yuqori	Past	68,4	7
8	Qashqadaryo viloyati	5,5	O'rta	Past	66,9	8

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi PQ-4702-son qarori 1-ilovasidagi Nizom talablari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan amaliy hisob-kitob shabloni.

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida, xususan, hududlar bo'yicha yalpi hududiy mahsulot, asosiy kapitalga investitsiyalar va tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlari asosida muallif hisob-kitoblari.



9	Buxoro viloyati	5,2	O'rta	O'rta	66,1	9
10	Xorazm viloyati	4,0	Past	Past	63,5	10
11	Jizzax viloyati	3,4	O'rta	Past	62,3	11
12	Surxondaryo viloyati	3,0	Past	Past	60,8	12
13	Sirdaryo viloyati	2,2	Past	Past	59,6	13

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hududlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Xususan, reytingning yuqori pog'onalarini Toshkent shahri, Toshkent viloyati hamda Navoiy viloyati egallagan bo'lib, bu hududlarda yalpi hududiy mahsulot hajmi, investitsiya faolligi va tashqi iqtisodiy aloqalar yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, Toshkent shahri respublika iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi markazlaridan biri sifatida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

Reytingning o'rta qismida joylashgan Samarqand, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlari o'sish salohiyati yuqori bo'lgan hududlar sifatida tavsiflanadi. Ushbu hududlarda aholi sonining yuqoriligi, ichki bozor hajmining kengligi hamda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanganligi ularning iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Jumladan, Namangan viloyati investitsiya faolligining ortib borayotgani bilan ajralib turadi, shu bilan birga eksport salohiyatini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud.

Reytingning quyi qismida joylashgan Sirdaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida iqtisodiy faollik nisbatan pastligi, infratuzilmaning rivojlanish darajasi va investitsiyalar hajmining yetarli darajada emasligi kuzatiladi. Bu esa mazkur hududlarda iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur reyting natijalari hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi bir xil emasligini ko'rsatadi. Shu bois hududlar raqobatbardoshligini oshirishda differensial yondashuvni qo'llash, ya'ni har bir hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amalga oshirilgan reyting tahlili natijalari O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Yuqori rivojlangan hududlar, asosan, sanoatlashgan va investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari keng bo'lgan mintaqalardan iborat. O'rta guruh hududlari esa demografik va tadbirkorlik salohiyati hisobiga barqaror rivojlanish sur'atlarini namoyon etmoqda. Past reytingli hududlarda esa infratuzilmani rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish orqali rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- hududlarning ixtisoslashuviga mos ravishda iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;
- investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish va hududiy infratuzilmani rivojlantirish;
- kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali bandlik darajasini oshirish;
- innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish;
- hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish va ochiqlikni ta'minlash.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hududlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga hamda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. — New York: Free Press, 1990.
2. Krugman P. *Geography and Trade*. — Cambridge: MIT Press, 1991.
3. G'ulomov S. S. *Iqtisodiy o'sish nazariyasi va amaliyoti*. — Toshkent: Fan, 2010.
4. Xodiyev B. Yu. *Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish muammolari*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2015.
5. Abdurahmonov Q. X. *Mintaqaviy iqtisodiyot*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
6. OECD. *Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide*. — Paris: OECD Publishing, 2008.
7. World Bank. *Worldwide Governance Indicators: Methodology and Analytical Issues*. — Washington, 2020.
8. UNDP. *Human Development Report*. — New York: United Nations Development Programme, 2022.
9. World Economic Forum. *Global Competitiveness Report*. — Geneva, 2023.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)